

Toshkent shahridagi Toshkent Xalqaro Vestminster Universiteti talabalari tomonidan “Ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar” doirasida atoqli adib **Aleksandr Faynberg** haykali poyida tashkil etilgan tadbir yuzasidan

BAYONNOMASI

2026-yil 09-fevral

TXVU

2026-yil 09-fevral kuni Toshkent shahridagi “Adiblar xiyoboni”da Toshkent Xalqaro Vestminster Universiteti talabalari ishtirokida atoqli adib Aleksandr Faynberg haykali poyida ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar tashkil etildi. Tadbir universitetning yillik rejasi asosida va shuningdek, shariat mulkingning sultoni, buyuk mutafakkir va shoir Alisher Navoiy tavallud kuniga bag‘ishlab o‘tkazildi.

Mazkur tadbirning asosiy maqsadi talaba-yoshlarni milliy adabiyotimiz, madaniyatimiz va tariximiz bilan yaqindan tanishtirish, ularni buyuk shoir va adiblarning hayoti, ijodi, falsafiy qarashlari hamda ma’naviy merosi bilan tanishtirishdan iborat edi.

Tadbir davomida talabalar adib Aleksandr Faynberg haykali poyida yig‘ilib, uning ijodiy merosi va adabiyotimiz rivojida o‘rni haqida ma’lumotlar olishdi. Shuningdek, Alisher Navoiy tavallud kuniga bag‘ishlangan qisqa ma’rifiy nutqlar tinglandi, talaba-yoshlar she’riyatga bag‘ishlangan musiqiy va badiiy chiqishlarda ishtirok etdilar.

Tashrif davomida talabalarga tarixiy va madaniy ma’lumotlar berildi, ularning milliy qadriyatlarimizga hurmat va muhabbat hissi yanada kuchaytirildi. Talabalar tadbir yakunida esdalik uchun suratga tushdilar, shuningdek, adabiyot va san’atga bo‘lgan qiziqishlarini yanada rivojlantirishga ilhom oldilar.

Tadbir yakunida ishtirokchilar o‘zaro fikr almashdilar, ma’naviy va madaniy merosimizni asrab-avaylash, uni yosh avlodga yetkazish borasidagi mas’uliyatni angladilar. Shu bilan birga, talaba-yoshlarning madaniy-ma’rifiy faolligi va adabiy qadriyatlarimizga bo‘lgan hurmati oshirildi.





Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy
ishlash bo'yicha birinchi prorektor:

N.Kodirov

Universitet katta tyutori:

F.Ismagilova